



The content of the education of an enlightened person in didactic works

Gulchekhra IZBULLAYEVA¹

Bukhara State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2023

Received in revised form

15 June 2023

Accepted 25 June 2023

Available online

15 July 2023

Keywords:

enlightenment,
happiness,
virtue,
wisdom,
intelligence,
courage,
chastity,
justice.

ABSTRACT

The contribution of enlightened thinkers who lived in Central Asia at the end of the 12th century – the first half of the 14th century to the development of pedagogical ideas and the content of didactic works created by them is analyzed in the article. The main tasks that serve to educate an enlightened person: striving for continuous enlightenment; pursuing knowledge; conducting education in an orderly manner; creating enlightenment; complete attachment to enlightenment; enlightening the environment; connecting the purpose and profession with the enlightened people. It is based on the fact that it is the achievement of a special quality called enlightenment, and it is possible to define happiness, virtue, wisdom, intelligence, courage, chastity, and justice as the main categories.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp33-46>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Didaktik asarlarda ma'rifatli shaxsni tarbiyalash mazmuni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ma'rifat,
saodat,
fazilat,
hikmat,
aql,
shijoat,
iffat,
adolat.

Mazkur maqolada muallif tomonidan Markaziy Osiyoda XII asr oxiri – XIV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan ma'rifatparvar mutafakkirlarning pedagogik fikrlar rivojiga qo'shgan hissasi va ular tomonidan yaratilgan didaktik asarlar mazmuni tahlil qilingan. Ma'rifatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladigan asosiy vazifalar: uzluksiz ma'rifatga intilish; ilm topish sari intilish; ta'limni tartib bilan olib borish; ma'rifat hosil qilish; ma'rifatga butkul bog'lanish; atrofga ma'rifat baxsh etish; maqsad va maslakni ahli ma'rifat bilan bog'lash; ma'rifat nomli xos sifatga erishish ekanligi hamda asosiy kategoriyalar sifatida saodat, fazilat, hikmat, aql, shijoat, iffat, adolatni belgilash mumkinligi asoslangan.

¹ Associate Professor, DSc, Department of Pedagogy, Bukhara State Pedagogical Institute.

Содержание воспитания просветленного человека в дидактических произведениях


АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

просвещение,
счастье,
добродетель,
мудрость,
разум,
мужество,
целомудрие,
справедливость.

В статье анализируется вклад просвещенных мыслителей, живших в Средней Азии в конце XII века – первой половине XIV века, в развитие педагогических идей и содержание созданных ими дидактических произведений. Основные задачи, служащие воспитанию просветленного человека: стремление к непрерывному просветлению; стремление к знаниям; ведение образования в упорядоченном порядке; создать просветление; полная привязанность к просветлению; просветление окружающей среды; связывая цель и профессию с просветленными людьми. Он основан на том, что это достижение особого качества, называемого просветлением, и в качестве основных категорий можно определить счастье, добродетель, мудрость, разум, мужество, целомудрие и справедливость.

Didaktik asarlar tarkibi, tuzilishi mazmuni bilan bir-biridan farq qilsa ham mohiyati bir-biriga yaqin bo'lib, inson kamoloti va barkamolligi masallariga qaratilgan. Didaktik asarlar tarkibi xalq og'zaki ijodi, "Qur'on", hadis, xalq hajvlari, latifa, hikoyat, rivoyatlardan tashkil topgan. Didaktik asarlarda ma'rifatli shaxsni tarbiyalash borasida so'z borar ekan, jamiyat taraqqiyoti va uning ravnaqi uchun "zamonning yangi kishisi" [2; 122-b.]ni tarbiyalash maqsadi yetakchi o'rin egallaydi. Ushbu asarlarda bayon qilingan: "Insonning vazifasi – uzluksiz ma'rifatga intilish va nur bilan to'ldirish va ilm topib, musaffolik sari intilishdir" [3; 138-b.]. "Ta'lim shunday bir tartib bilan olib borilishi kerakki, uning foydasi har ikki dunyoda tezlik bilan o'zini namoyon qilsin" [7; 187-b.]. "Kishi agar irfon (ma'rifat)ga butkul bog'langan bo'lsa, u shu dunyo ahliga sulton bo'ladi [4; 455-b.]. Bu jahonda ma'rifat hosil qiling... [4; 466-b.]. Atrofingizdagilarga ma'rifat baxsh eting, maqsadingiz, maslagingiz ahli ma'rifat bilan bo'lsin, ma'rifat bu xos sifatdir" [4; 687-b.] kabi hikmatlardan yuqorida keltirilgan maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladigan asosiy vazifalarni belgilash mumkin. ("1-rasmga qarang").



1-rasm. Ma'rifatli shaxsni tarbiyalash mazmuni

Sharq allomalarining aksariyatida ma'rifatni hosil qilish yo'lidagi ta'limotlarning turli talqinini kuzatish mumkin. Jumladan, darveshlik, tarkidunyochilik, mehnat qilish, ilm izlash, tariqat yo'li, san'atning aksariyat turlari va ko'pincha donishmandlik kabilarni misol qilish mumkin. Didaktik asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'rifat borasidagi qarashlar Fariddidin Attor va Nosiriddin Tusiy asarlarida yetakchilik qiladi. Ularning ta'limotidan ma'rifatli shaxsni tarbiyalash borasida unumli foydalanish mumkin. Birinchi o'rinda ma'rifat hosil qilishda insonda mavjud bo'lgan quvvat va nafs turlariga to'xtalib o'tamiz. Tusiy insonda uch xil nafs bor deb ta'kidlaydi. (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Insonda mavjud bo'lgan quvvat va nafs turlari

№	Quvvat	Turi	Daraja	Mazmuni
1.	nutq quvvati – o'rni fikr va bilim xazinasi bo'lgan miyada	malak nafi (malakiy nafs (nutq nafi) – hikmat tabiati	“ashraf” (eng sharafl)	haqiqatlarga teran nazar tashlashning boshlang'ich fikr quvvatidir
2.	g'azab quvvati – o'rni tug'ma jo'shqinlik bulog'i va hayot chashmasi bo'lgan yurakda	siboij nafi (vahshij nafi – karomat tabiati)	“avsat” (o'rta)	doviyurak bo'lmoq, qo'rquv va vahimadan ustun kelmoq, o'smoq, yuksak maqomga yetmoqning boshlang'ich quvvatidir
3.	shahvonij quvvat – o'rni hazm bo'lgan, erigan ozuqalarni badan uzvlari orasida tarqatadigan jigarda	bahimij nafi (hayvonij nafi – ehtiros tabiati)	“dun” (past)	shahvat, oziqlanmoq, yemoq, ichmoq va jinsij aloqadan lazzat olmoqning boshlang'ich quvvatidir

Inson mohiyatining komilligi to'liq shaklda yolg'iz nutq quvvatida markazlashganligi tufayli ruhiy xastalikdan boshqa badandagi barcha nosozliklar hech biri inson kamolotiga zarar yetkazmaydi. Ma'rifat ilohij va dunyovij bo'lib, ilohij ma'rifat hosil qilinishi uchun ishonch birinchi o'rinda turadi. Ulamolar (olimlar, bilimdonlar)ning aytishlaricha, ishonch uch xil bo'ladi: “ilm-ul yaqin” (kitobij, tahsilij ilm), “ayn-ul yaqin” (tajribavij bilim), “haqq-ul yaqin” (o'zi tajriba vositasi bo'lib, haqiqatni anglash ilmi). “Ilohiynoma”da Fariduddin Attor ilohij ma'rifatga erishish yo'lini ilm-ul yaqin, ayn-ul yaqin, ilmning mag'zi ilmi ladun (g'ayb ilmi, ilohij ilm) hosil bo'lishi kabi ta'kidlab o'tadi. Ishonchning eng yuksak darajasi shaxs tarbijasi transsendental (tarbijalanuvchini mutlaq qadriyatlar – Haqiqat, Yaratguvchiga yaqinlashtirish) onnga, ya'ni ilmlarning mag'zi bo'lmish ladunij (ilohij) ilmga aylanadi va bu ilm ilohij ma'rifat hosil qilishning cho'qqisi sanaladi. Ilohij ma'rifat kamoloti – mutlaq saodatga erishish tushuniladi.

“Axloqi Nosirij”da Tusiy: insonning “umrning juda ilk chog'laridan ota-ona tarbijasi”, “so'ngra qoida-qonunlar”, “eng so'ngida axloq va aqidaning soflashtirish natijasida” hikmatga yetishishga ehtiyojlari borligini ko'rsatadi. Agar inson tabiati nasihat qabul qilib hikmatga yetsa, ular ham yuksalib saodatga yetishini ta'kidlaydi. Fariduddin Attor ma'rifatni hosil qilish darajalarini quyidagicha tasniflaydi. (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Ma'rifatni hosil qilish darajalari

№	Darajalar	Mazmun
1.	Ziynat	ma'rifat bilan bezanish
2.	Qurbat	ma'rifatga yetishish
3.	Qadr	ma'rifatning quyi darajasiga erishish
4.	Sohib	ma'rifat sohibi bo'lish
5.	Sodiq	ma'rifatda sadoqatli, vafodor bo'lish
6.	Sadr	ma'rifatning baland martabasiga erishish

Bundan tashqari, Fariduddin Attor o'z qarashlarida ma'rifatga erishish bosqichlarini ham izohlab o'tadi. Quyida alloma qarashlarida keltirilgan ma'rifat hosil qilish bosqichlari tasvirlangan. (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Ma'rifat hosil qilish bosqichlari

Bosqich	Vosita	Mazmun
birinchi bosqich	nafs, shahvat	ilmsizlik bosqichi
ikkinchi bosqich	joh(amal)u quvvat	ilmni egallash bosqichi
uchinchi bosqich	yo'qlikka hastlik	ilmilik bosqichi
to'rtinchi bosqich	yo'qlikka mastlik	ilm va amal birligi bosqichi

Fariddiddin Attor va Nosiriddin Tusiy qarashlaridan foydalanib ma'rifat hosil qilishning yo'llarini quyidagicha tasniflash mumkin. (4-jadvalga qarang).

4-jadval.

Ma'rifat hosil qilish yo'llari

№	Yo'l	Mazmun
1.	Ilm	ilmning amal bilan birga bo'lishi; pirini hamisha yo'l boshchi bilishi; ma'rifatni o'z qadricha ko'rishi, haqiqat bobida o'z o'rnini anglashi.
2.	Tahsil	mudom ilm o'rganish, ta'lim olishda sabr va talabli bo'lish; tafakkur etish, aqlni toblash.
3.	Tadbir	ma'rifat yo'lidan kamoli boricha, qurbi yetguncha va holi boricha borish.
4.	Zahmat	ilmga erishish, uzoq va mushkul bo'lsa ham uni egallash; ko'ngilni siymu zarga emas, ma'rifatga bog'lash; o'zlikni tanish, ma'rifat yo'lida sidqu vafo bilan qalb ko'zini ochish.
5.	Mehnat	jonga quvvat bo'luvchi ilmu donish, ko'ngilga xush yoquvchi, malham bo'luvchi pand-u nasihat, hikmat berish; ma'rifat yo'lida jahd bilan xizmat qilish.

Attor, Tusiy, Rumi hamda Aziziddin Nasafiy kabi olimlar qarashlarida juz'ni (bo'lakni) kull (butun) hisob etadigan odamdan nodonroq odam yo'q, deb ta'rif etiladi. Tusiy Ibn Sino fikrini ulug'lab: "Umrimiz bo'yi o'rgandik, oxirida shuni bildikki, hech nima bilmaymiz" [7; 183-b.], -deydi. Quyida Tusiy va Nasafiylarning ma'rifat borasidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. (5-jadvalga qarang).

5-jadval.

Ma'rifat ta'rifi

Alloma	Ma'rifat	Ilohiy ma'rifat
Tusiy	bilmoq, tanimoq degan ma'nosini anglatadi	Xudoni bilish yoki bilishning eng yuqori darajasi tushuniladi.
Nasafiy	ko'p narsani bilish – ma'rifat etish tushuniladi.	dunyoning ma'rifati, dunyo ishlarining ma'rifati, oxiratning ma'rifati, oxirat ishlarining ma'rifati.

Ma'rifat shaxsda turli sifatlar bilan namoyon bo'ladi va bu sifatlar har bir asarda yetakchi o'rin egallaydi. Masalan: olim, qobil, bedor, sohibi saodat, sohibi asror, chin muqtado, sohib karomat, guharposh (gavhar sochuvchi), piri komil, rahbari roh (yo'lboshlovchi rahbar), oliy sifat, fozil inson, xushadab (odobli), suvrati va sifati ma'ni, ulug', nodiri davron, muttaqiy (taqvodor), komil inson, mard, farzona (bilimdon), gavhar vujud, himmati oliy, peshqadam, quvvati ruhi ravon (ruhiy quvvati yuksak), yorug' sham, ko'ksida nur, otash, dard to'liq bo'lgan inson.

Ma'rifatli shaxs xislatlari quyidagicha namoyon bo'ladi: nomunosib ishga qo'l urmaydi, yomonlikdan hazar qiladi, saxovatli bo'ladi, aytgan so'zidan tonmaydi; ilm-u donish sirini biladi, dunyo yorug'ligi unga gulshan bo'ladi; po'st (sirt)ni ko'rar ekan mag'z (ma'no)ni anglaydi, har qayerga ko'zini solsa, yaxshilikni, do'stlikni ko'radi; har bir zarra Haqdan ekanligini his qiladi; ma'rifat bag'rida suzib, ma'rifatga quloq ochadi; hamisha saltanatli bo'ladi, ilm-u ma'rifatdan samara topadi; jahd etib ma'rifatni kasb aylab, oliy sifatga erishadi; olam ahli (insoniyat, bashariyat) anglashi lozim bo'lgan bilimlarining sohibi bo'ladi; oqil, dono va ziyrak bo'ladi, har ishni oldindan ko'ra oladi; ma'rifat hosil qilib o'zini taniydi; ma'rifat chirog'ini yoqadi, xalq quyoshi, millat chirog'i bo'ladi; ilmsizlikka yo'l qo'ymaydi, insonni xor qilmaydi; ruhning yuksakligi, qalb go'zalligi tufayli ma'naviyati ma'rifat mulki bilan uyg'unlashadi; atrofdagilarga ma'rifat baxsh etadi, maqsadi, maslagi ma'rifat ahli bilan bo'ladi; ilm o'rganadi, ilmiga ishonch hosil qiladi, amaliyotda qo'llaydi.

Didaktik asarlarda bir guruh Attor, Tusiy, Rumi, Shabustariy kabi olimlar ma'rifatli bo'lish fazilatlarini aqli rasolik, jami (go'zal) xulqlik, nuri rohi mustaqim (to'g'ri yo'l ravshanligi)lik, yuksak manzilga yetish, musaffolik, poklik nurining bo'lishi kabi belgilaydilar. Attor qarashlaridan foydalanib, ma'rifatli bo'lish xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin. (6-jadvalga qarang).

6-jadval.

Ma'rifatli bo'lish xususiyatlari

No	Faoliyat	Mazmun
1.	nafsni tiyish	axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish
2.	orif bo'lish	shaxs ongiga ilmiy bilim, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish
3.	o'zlikni anglash	milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish

Tusiy qarashlarida ma'rifat: saodat, fazilat, hikmat kabi so'zlar orqali bayon etiladi va ushbu so'zlarni ma'rifatning asosiy kategoriyasi sifatida belgilash mumkin. Ma'rifat xayr (ezgulik) va saodatga tayanadi. Quyida Nosiriddin Tusiy

“Axloqi Nosiriy” asarida Aristotelning “saodat”ga har sinfnig aqli qabul etadigan bir shakldagi tasnifi keltirilgan. (7-jadvalga qarang).

7-jadval.

Aristotel qarashlarida sinflar saodati

№	Sinflar	Saodati
1.	Yo'qsilning	mol va davlatda
2.	Xastaning	sog'lomlik va sihatda
3.	Nom-nishonsizning	shon va shuhratda
4.	Ochko'zning	aysh va ishratda
5.	Ehtiroslining	huzur va shahvatda
6.	Kinlining	intiqom va adovatda
7.	Oshiqning	visol va muhabbatda
8.	Olimning	ilm va madaniyatda

“Axloqi Nosiriy”da Tusiy Aristotel qarashlaridan foydalanib, saodat sinflarining besh qismini keltiradi: badanning sog'lomligiga, hislarning ohangdorligiga va mijozning mo'tadilligiga oid bo'lganlar; mol-davlat va xizmatchilarga oid bo'lganlar; xalq orasida yoyilgan go'zal an'ana va xayrli ishlarga oid bo'lganlar; bilim va iroda vositasi bilan maqsadlarning amalga oshirilishi va fikrlarning ijrosiga oid bo'lganlar; to'g'ri fikr va xayrxoh qarashlarga oid bo'lganlar. Sinflarning saodatiga qarama-qarshi sinflar zavoli borasida “Qobusnoma”da uch kishining: “biri sohibi aql odamki, aqlsiz odamning zerdasti bo'lgan; bir ojiz odamning bo'yni qaviy (kuchli, baquvvat) odamga xam bo'lgan; yana biri, karim (oliyanob) kishi laim (xasis) odamga muhtoj bo'lgan” [2; 121-b.] holiga rahm qilmoq kerakligi tasvirlangan. Demak, saodat maqsadi bilan yo ijobiy yo salbiy bo'lishi mumkin. Tusiy “Bir odamning “saodati” boshqa bir odamning “saodati” emasdir, “xayr” esa hamma uchun bir xildir” [7; 187-b.], deydi. Ma'rifat rivoji unga beriladigan ilmiy va amaliy mazmunga bog'liq. Ma'rifatga erishish yo'lida inson o'z maqsadidan istagan zavqni oladi. Quyida ma'rifatli insonning takomili uchun zavq bag'ishlaydigan omillar tasvirlangan. (8-jadvalga qarang).

8-jadval.

Ma'rifatli inson takomilida zavq bag'ishlaydigan omillar

№	Ma'rifatli inson	Omillar
1.	Odil odam	Adolatdan
2.	Faylasuf	Hikmatdan
3.	Fozil odam	Fazilatdan

Attor va Tusiy fikricha aqliy, ma'naviy zavq mohiyati abadiy, bu zavqni totmagan odam ma'rifatni qanday anglaydi? “Saodatga yetmoqning yo'li hikmat tabiatli zavqlarning ortidan ketmoq, boshqa narsalarga ko'z yumib, yolg'iz uni o'ziga shior etmoqdan iboratdir”

[7; 187-b.]. Ma'rifat hosil qilishning empirik ta'limot tarafdori Tusiy saodatning saxovatsiz bo'la olmasligi, saodatning aksi "shaqovat", ya'ni badbaxtlik ekanligi va bu badbaxtlik insonni razolat (jaholat)ga yetaklashini e'tirof etadi. Sa'diy esa "baxtiyor – yeb-ichadi, ekadi; baxtsiz – yig'ib-yig'ib o'lib ketadi" [6; 126-b.], – deydi. Tusiy "Saodat"ning tarkibini hikmat, shijoat, iffat va adolat deb ko'rsatadi va saodat hissiy emas zehniydir, deydi. Bularga fazilat jinsining miqdori deb ham aytiladi. Shabustariy esa chiroyli, yaxshi xulqni adolat ramzi sifatida tasvirlaydi, insonda adolat bo'lsa unga hikmat, iffat, shijoat ham namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Bu fazilatlarga erishish saodatga yetmoq uchun kifoyadir. Quyida Tusiy va Shabustariy qarashlaridan foydalanib, ma'rifatning asosi bo'lgan saodat (fazilat) tarkibining miqdorlari keltirilgan. (9-jadvalga qarang).

9-jadval.

Saodat tarkibi va uning miqdorlari

№	Ma'rifiy tarbiya	Tarkibi	Miqdor
1.	nazariy quvvatning tarbiyasi	Hikmat	Zako; Idrok sur'ati; Zehn oydinligi; O'rganish osonligi (diqqat); Aql go'zalligi; Xotira; Hozirjavoblik
2.	amaliy quvvatning tarbiyasi	Adolat	Sadoqat; Ulfat; Vafo; Shafqat; Rahmdillik; Mukofot; O'rtoqlikning husni; Hukmning husni; Hurmat; Taslim; Tavakkal; Ibodat
3.	g'azabning tarbiyasi	Shijoat	Nafsning shohonaligi; Jasurlik; Oliyanoblik; Matonat; Hilm; Sokinlik (xotirjamlik); Hunar; Chidamlilik; Tavoze; G'ayrat; Hamdardlik;
4.	shahvatning tarbiyasi	Iffat	Hayo; Halimlik; Samimiyat; Tinchlik; Parhez; Sabr; Qanoat; Viqor; Ehtiyot; Nizom (tartib); Hurriyat; Saxovat (Karam (karomat)); Qo'li ochiqlik; Afv; Muruvvat; Xayrixohlik; Yordam; Ulush; Yuzy yumshoqlik;

Olim hikmatning tazahur (namoyon bo'lish) shakli "nutq", qolgan uch shijoat, iffat va adolat jinsining tazahur shakllari esa "badan"da ekanligini ta'kidlab, har iffatli va shijoatli odam hikmatli bo'lmasligi, lekin har hikmatli odam ham iffatli, hamda shijoatli bo'lishi mumkinligini izohlaydi.

Tusiy qarashlarida fazilat tarkibi miqdorlarining mazmuni aniq ifodalangan (3 – ilovaga qarang). Fazilat tajriba natijasida qo'lga kiritiladi. Uning fikriga ko'ra: "Har fazilatning ham o'z haddi bordir, undan "ortiq" va "kam" bo'lganda razolatga aylanadi. Bunga ko'ra olimlar (faylasuflar) deganlarki, fazilat – "o'rtalikdir", razolat – "atrof". Quyida mutafakkirlar fikrlaridan foydalanib fazilat tarkiblarining zidi bo'lgan razolat (jaholat) sinflari keltirilgan. (10-jadvalga qarang).

10-jadval.

Fazilat tarkiblariga zid bo'lgan razolat sinflari haqida

Fazilat tarkibi	Razolat (jaholat) sinfi
Hikmatning zidi	Avomlik
Shijoatning zidi	Jasoratsizlik
Iffatning zidi	Hirslilik (ehtiroslilik)
Adolatning zidi	Zulmkorlik

Fazilatning to'rtta tarkibi: hikmat, shijoat, iffat va adolatga zid bo'lgan razolatlarning ham sakkizta tarkibi ko'rsatib o'tilgan. Ulardan ikkitasi hikmatga zid, bular: "ahmoqlik" va "ablahlik". Ikkitasi shijoatga zid, bo'lar: "tentaklik" va "jur'atsizlik", yana ikkisi iffatga zid, bular: "jinnilik" va "sustlik". Qolgan ikkitasi adolatga zid, bular: "zolimlik" va "mazlumlik".

Tusiy qarashlarida adolatni saqlashning qator shartlari ko'rsatilgan. Unga ko'ra adolat siyosat, ijtimoiy himoya va iqtisod bilan bog'liq. Quyida ushbu fikrlardan foydalanib adolatni saqlashning shartlari izohlangan. (11-jadvalga qarang).

11-jadval.

Adolatni saqlashning uch sharti

№	Shart	Mazmun	Vosita
1.	Ilohiy nomus	vijdon ovozi	qonun, siyosat va bunga o'xshash tushunchalar
2.	Insoniy hakim	haqsizlik va jinoyatlarning oldini olish	odil podshoh, hakim (qozi), donishmand, xalifa, muhaddis, imom
3.	Pul	muloqot birligi	Dinor

Didaktik asarlarda ma'rifatga erishishda insonda tabiiy va ijtimoiy rivojlanish yuz berishi aytib o'tilgan. Attor ma'rifatning inson ijtimoiylashuvidagi ta'sirini insonni jaholatdan qutqaradi, ma'naviy harorat beradi, joniga rohat baxsh etadi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi, deb ko'rsatadi. Tusiy tabiiy rivojlanishni – ilohiy hikmat soyasida, ijtimoiy rivojlanishning amalga kelishi esa – inson mehnati va irodasi, tabiiy vositalarning ko'magi ishtiroki natijasida yuzaga keladi, deydi. Ma'rifatni tarbiyalash ijtimoiy va tabiiy rivojlanishning izchillik va harakat prinsipi yetakchi o'rin egallaydi. "Har kishi ma'rifat yo'lidani kamoli boricha, qurbi yetguncha va holi boricha boradi" [4; 123-b.], "Har o'qigan kimsa aqli yetguncha anglar, har xizmat etguvchi kimsa kuchi etganicha xizmat etar" [5; 430-b.]. "Hech kim onadan chiqib fazilat sohibi bo'lmas" [7; 187-b.], chunki "fazilat tajriba natijasida qo'lga kiritiladi" [7; 187-b.]. "Axloqi Nosiriy"da fazilat sohibini tarbiyalash borasida quyidagi mazmun keltirilgan. (12-jadvalga qarang).

12-jadval.

Fazilat sohibini tarbiyalash yo'llari

№	Shartlari	Avval	So'ng
1.	"Shahvat quvvati", so'ngra "g'azab quvvati" nuqtai nazaridan tadqiq	Bu quvvatlar mo'tadil bo'lsa, uni saqlamoqqa sa'y-harakat ko'rsatish va bu quvvatlardan tug'iladigan yaxshi amallarning odatga aylanishiga harakat qilish	Mo'tadil bo'lmasa, avval uni mo'tadillikka qaytarmoq, so'ngra uni odat holiga solmoq
2.	Nazariy quvvatni rivojlantirmoq va uni nizomga solmoq	Shunday bir fanni o'rganmoq lozimdirki, miyani charchatmasin, zehnni xarob qilmasin, tez maoriflanmoqqa (ilmli bo'lmoqqa) havas uyg'otmasin	So'ngra shunday bir fanga bog'lanmoq lozimdirki, taxayyul(fantaziya) bilan aqliy qonunlar bir-biriga ko'mak eta olsin, miya to'g'ri zavqlansin, hamda lozimiy haqiqatlar idrok etilsin

3.	Ashyoviy borliqlarning ta'limi (ularning mohiyat va xususiyatlarining tahlili)	hissiy tushunchalardan boshlash	moddiy borliqlarning asoslarini o'rgatmoq bilan bu bahsga yakun berish
4.	Adolat qonunlariga rioya etmoq	ularni himoya qilib saqlamoqni, uning tabiatiga ko'ra harakat etib faoliyat ko'rsatmoqni, boshqalari bilan aloqa, muomala va munosabatda uning tabiatiga uyg'un xulq-atvorni singdirish	ham tashqi, ham ichki saodat uchun kurashish

Ma'rifatning yetakchi kategoriyalaridan biri bu saodat, quyida saodat turlari va ularning qismlari keltirilgan. (13 va 14 – jadvallarga qarang).

13-jadval.

Saodatga erishish turlari va ularning qismlari

№	Turlari	Qismlari
1.	nafsiy saodat	axloqning poklanishi ilmi (axloqshunoslik); mantiq ilmi; riyoziyot ilmi; tabiat ilmi; ilohiyot ilmi.
2.	vujudiy saodat	Tib ilmi: muolaja, sog'lomlikning himoyasi, badan tarbiyasi
3.	madaniy saodat	millatning, davlatning va jamiyatning ishlarini nizomga solmoqqa xizmat etsin, masalan, "fiqh", "hadis", "xabar", "tanzim(tartiblangan)" va shu kabilarga tegishli bo'lgan shariat ilmi; "adabiyot", "balog'at" (notiqlik, bayon (ritorika)), "grammatika", "kotiblik" ("munshiylik"), "hisob", "handasa", "iqtisodiyot" va shunga tegishli bo'lgan tajriba ilmlari

14-jadval.

Saodatga erishishning faoliyat mazmuni

№	Faoliyat	Mazmun
1.	Mustaqil tushunmoq	"to'rtlik ilmlari" bilan mashg'ul bo'lmoqqa odat yetmoq, sadoqat bilan do'stlashmoq, o'z bilganini tushunmoq, haqiqat bilan aloqa bog'lab, tilni yolg'on so'zlamodan, qulog'i bo'hton eshitmoqdan nafrat ettirmoq
2.	Komillik darajasiga yaqinlashmoq	hikmat masalalarini juda diqqat bilan mutolaa qilishni boshlamoq, ilmning qiyinliklariga g'alaba qilib, sirlariga voqif bo'lmoq, ko'p ma'lumot to'plab ko'p uzoqqa ketmoq.
3.	Asrining yagona allomasi bo'lmoq istasa	o'z ilmiga bo'lgan havas va ehtirosining oldini olmaslik, bir vazifaga yopishgan holda orzu va istaklariga to'siq qo'ymaslik, ilmning so'ngsizligi qaroriga kelish, butun ilmlarning ustida yana bir ilmning borligiga ishonish.

Ma'rifatli bo'lishning bosh g'oyasi ham ilm, ham amal birligida faoliyat yuritish lozimligi belgilangan. Didaktik asarlarda: "Nasabidan gapirma, amalidan gapir", "Ilm ota bo'lsa, ona amal emish" [4; 687-b.]. "Ilm ham amalsiz mahv bo'ladi, amal esa ilmsiz mumkin emasdir. Ilm (bilim) – boshlang'ich, amal – so'ng, ilm – sabab, amal – natija" [7; 43-b.]. "Ilmiga amal qilmagan olim nimaga o'xshaydi? "inson ilmi amalsiz bo'lsa sham ko'targan nodon kabitdir" [4; 203-b.]. "Ilming amal bilan bo'lsin" [4; 203-b.], "o'zingni ilm

birlan amalda ko‘r” [7; 203-b.], “ilmiga amal qilmagan olim mash’ala ko‘targan ko‘rga o‘xshaydi” [6; 127-b.], “ilm olib amal qilmagan odam – yerni shudgorlab urug‘ sochmagan dehqonga o‘xshaydi” [6; 134-b.], “bolsiz asalariga o‘xshaydi!” [6; 138-b.]. “Kimsakim, ilmga amal qilmasa, garchi allomadir u, lekin, olim emas” [1; 114-b.]. “Beamal ilm – nogiron, ojizdir” [1; 114-b.]. Toki bordir qo‘sh qanoting, uch baland, bir qanotli qush sira uchgaymikan? [5; 175-b.], deb keltirilgan. Ilm va amal hikmatning asosiy turlari hisoblanadi. Quyida ilm va amalning mazmuni, qismlari va turlari yoritilgan. (15, 16 va 17 – jadvallarga qarang).

15-jadval.

Hikmat turlari

№	Hikmat	Mazmuni
1.	Ilmi nazariy	borliqlarning haqiqatdan qanday ekanliklarini to‘g‘ri tasavvur etmoq, insonning yaratuvchi (ijodiy) aqli (nafsi-ammora) va sog‘lom tushunchasi doirasida uning xususiyat va sifatlarini kashf etmoq
2.	Amal (ish)	yashirin quvvatlarni o‘rtaga chiqarmoq, turli xil san‘at va kasblardan foyda keltirmoq, turli xil ish odatlarni qo‘lga kiritmoq uchun ko‘rsatilgan faoliyatga aytiladi, shu shart ilaki, u, bashariyat qudratining ortishiga, uning takomillashishiga sabab bo‘lsin

16-jadval.

Nazariy hikmat qismlari va turlari

Nazariy hikmat qismlari		
modda bilan aloqador bo‘lmagan borliqlar haqidagi ilm		moddasiz mumkin bo‘lmagan borliqlar haqidagi ilm
Nazariy hikmat turlari		
Tabiatga bog‘liq bo‘lmagan ilm	Riyoziyot	Tabiat ilmi
ilohiyot; ibtidoiy falsafa	Handasa; hisob; nujum va holat ilmi; ohang-shunoslik	tabiiy atamalar; atamalar va alomatlar; kavnu fasod (tug‘ilish o‘lish); samo tazahur (namoyish)lari; ma’danshunoslik; nabotot ilmi; hayvonot ilmi; nafs ilmi (psixologiya)

17-jadval.

Amaliy hikmat qismlari va turlari

Amaliy hikmat qismlari	
ayri-ayri odamlarga xos bo‘lgan	sherikli jamoatga xos bo‘lgan
Amaliy hikmat turlari	
Tabiiy	Qaroriy
axloqning poklantirilishi; uy xo‘jaligi qoidasi; shahar boshqarmoq siyosati	ibodat va ziyorat; nikoh, nishon, to‘y; idora etmoq, jazo bermoq, qoida-qonunlar “fiqh”.

Hikmatning natijasi bu qo'lga kiritilgan san'atda bilinadi. "Yaratgan o'z xalqiga bir ma'rifat va san'at ato etgan bo'lsa, bu asl saodatdir, insonlarda bo'lgan oliyjanoblikning, qo'li ochiqlikning, saxovatning, xayrixohlikning ildizi ham shu yerdandir" [7; 183-b.]. San'atlar uch tur bo'ladi: birinchi – sharaflil, ikkinchi – olchoq, uchinchi – o'rta. Quyida san'at va mohiyat mazmuni o'z ifodasini topgan. (18-jadvalga qarang).

18-jadval.

San'at turlari va mohiyati

№	San'at turlari	Vakillari	Faoliyatlari
1.	Sharaflil san'at	Vazirlarning san'ati	aniq fikr, to'g'ri mashvarat, xayrxoh maslahat
		Adiblarning va olimlarning san'ati	kotiblik, notiqlik, nujum, tib, handasa
		Harbiylarning san'ati	ot chopmoq, qilich o'ynatmoq, xandaqni olmoq, g'alaba qozonmoq
2.	Olchoq san'atlar	Firibgarlar kasbi	olibsotarlik, sehrgarlik
		Ahmoqlarning kasbi	masxarabozlik, mutriblik, qimorbozlik
		Mijozni olchoq narsalarni chekkanlarning kasbi	xastaga qon quyuvchi, teri oshlovchilik, supuruvchilik
3.	O'rta san'atlar	Zaruriy kasb	Ekinchilik
		G'ayri zaruriy kasb	Rangsozlik
		Sodda kasb	duradgorlik, temirchilik
		Murakkab kasb	qorovulchilik, pichoqchilik

Ushbu san'at turlari shaxsda ma'rifat hosil qilishda xizmat qiladi va ma'rifat ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Quyida ma'rifat ko'rinishlari va ularning vakillari keltirilgan. (19-jadvalga qarang).

19-jadval.

Ma'rifat ko'rinishlari

№	Ko'rinishi	Vakillari
1	To'liq	Saodat ahli
2	Noto'liq	Ilm ahli
3	So'ngli	Amal, fazilat ahli
4	So'ngsiz	Payg'ambar va avliyolar

Har bir narsa va hodisaning "akme" (komillik) nuqtasi bo'lgani kabi ma'rifatga tegishli jarayonlarning ham o'zining tegishli komillik nuqtasi mavjud. Tusiylar ta'rifiga ko'ra, hayotda qo'llanmagan fikr (loyiha) bu maqsad, faoliyatga aylangach, amalga oshirilgani bu komillik bo'ladi. To'g'ri, izchil, maqsadga uyg'un, mustaqim yo'l bilan harakat etish, tadrijiy ilm, madaniyat, bilim va hikmatga ega bo'lish ma'rifiy komillik nuqtasiga erishishga sabab bo'ladi. Quyida "Axloqi Nosiriy"da keltirilgan ma'rifatning so'nggi komillik nuqtasi bo'lgan aqlning mohiyati tasvirlangan. (20-jadvalga qarang).

20-jadval.

Ma'rifatning so'ngi komillik nuqtasi bo'lgan aqlning mohiyati

№	Aqlning mohiyati	Komillik nuqtasi
1.	Miqdorda	Muvozanat
2.	O'lchamlarda	To'liqlik
3.	Kayfiyatda	Nafsiy va jismoniy lazzat
4.	Nisbatlarda	Rayosat va sadoqat
5.	Makonda	Yerning pokligi
6.	Zamonda	Vaqtning munosibligi
7.	Qurilishda	Tarkiblarning muvofiqligi
8.	Kiyinishda	Kiyimning yarashiqliligi
9.	Ta'sirda	Ta'sirning natija bergani
10.	Hassoslikda	Hisning xush kelgani

Ma'rifatning so'nggi komillik nuqtasi bo'lgan aqlning mohiyati muvozanatlilik, to'liqlik, maqbullilik, aniqlik, tarbiyalanganlik, munosiblik, muvofiqlik, natijaviylik, moslik kabi me'zonlarni o'z o'rnida ma'rifatga erishish mezonlari kabi belgilash mumkin. Tusi qarashlarida insonning ma'rifiy komilligi va uning mohiyati quyidagi mazmunda ifoda etilgan. (21-jadvalga qarang).

21-jadval.

Insonning ma'rifiy komilligi (hikmat) turlari va mohiyati

№	Turlari	Mohiyati
1.	Ilmiy komillik quvvati	– ilm o'rganmoqqa, maorifga erishmoqqa yo'nalgan; – ilm va amal birligini qo'lga kiritgan; – haqiqatlarning mohiyatini anglagan; – mutlaq haqiqatni idrok etgan va unga qovushmoq sharafiga noil bo'lgan; – qalbi sokinlashgan va yuragida ishonch hosil bo'lgan; – ko'ngil oynasi va xotira ko'zgusi shubha hamda gumondan xoli.
2.	Amaliy komillik quvvati	– o'z imkon va faoliyatini tartibga solgan; – axloqi munosib, xush kelgan shaklda tarbiya topgan; – iroda, ishonch, imkon va ahvolotlarni to'g'ri faoliyat bilan uyg'unlashtira oladigan; – razolatga karshi saodat bilan tura oladigan.

Didaktik asarlar ma'rifatni takomillashtirish vositasi bo'lib, insonparvarlik paradigmasi sifatida butun dunyo ma'rifatiga xizmat qiladi. Allomalar ma'rifiy qarashlari ma'rifatli shaxsni tarbiyalash konsepsiyasi bo'la oladi. Mutafakkirlar ijodida ma'rifat va ma'naviyat uyg'unligi komil insonni tarbiyalashning yuksak darajasi sifatida namoyon bo'ladi va bu bugungi kun ma'rifatini hosil qilishda o'z mohiyatini yo'qotmagan.

Xulosa sifati shuni ta'kidlash mumkinki, didaktik asarlarda ma'rifatli shaxsni tarbiyalash konsepsiyasi ma'rifat kategoriyalari, sifatlari, darajalari, fazilatlar, ma'rifiy tarbiya metodlari, ma'rifatga erishish usullari, ma'rifatning inson ijtimoiylashuvidagi ta'siri, ma'rifatga ta'sir etuvchi omillar, erishish yo'lari, bosqichlari, ilmni hosil qilish bosqichi, ma'rifatli bo'lish xususiyatlari, ma'naviyat va ma'rifat birligi, ma'rifatparvarlik, ma'rifatparvar shaxslar hamda ma'rifatli shaxs mazmuni orqali ochib berilgan;

Didaktik asarlar to'g'risidagi bilimlarni takomillashtirish, ularni o'rganish, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy tarbiyaviy merosning avloddan-avlodga o'tib borishini ta'minlashda foydalanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dehlaviy, Amir Xusrav, Yor vasli /Amir Xusrav Dehlaviy; to'plovchi, so'zboshi va izohlar muallifi E.Ochilov. – T.: O'zbekiston, 2011. – 128-b.
2. Kaykovus. Qobusnoma; fors. Muhammad Rizo Ogahiy tarj.; nashrga tayyorlovchilar. S.Dolimov, U.Dolimov, – T.: "O'qituvchi", 2011. – 208-b.
3. Komilov Najmiddin. Komil inson haqida to'rt risola: Farididdin Attor, Sulton Valad, Aziziddin Nasafiy, Husayn Voiz Koshifiy ijodidan namunalar / Fors-tojik tilidan N.Komilov tarj. – T., "Ma'naviyat". 1997 – 280-b.
4. Nishopuriy, Shayx Farididdin Attor Dostonlar "Mantiq ut-tayr", "Asrornoma", "Ilohiynoma", "Pandnoma", "Bulbulnoma", "Ushturnoma" / Shayx Farididdin Attor Nishopuriy; Forsiydan. Jamol Kamol tarjimasi, – T.: "Tamaddun", 2012. – 552-b.
5. Rumi Jaloliddin. Masnaviyi ma'naviy /Forsiydan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarj. – T.: "MERIYUS" XHMK. 2010. – 846-b.
6. Sa'diy. Guliston. Bo'ston: to'plam / nashrga tayyorlovchi H.Homidiy; tarjimonlar: G'.G'ulomov, Sh.Shomuhamedov, R. Komilov, Chustiy. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2013. – 264-b.
7. Tusi Xacə Nəsirəddin. Əxlaqi-Nasiri. / Farscadan tərjume edəni, ön sözü və şəchlərin müəllifi: Rəhim Sultanovun. Bakı, «Lider Nəşriyyat», 2005. – 280 b.